

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**SHAMSIYEV NODIR MURATOVICH**

**TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

**Ixtisoslik: 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fasafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: dotsent., PhD Saipnazarov Sh**

Toshkent – 2024

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARINING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
1.1.	Bank depozit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va tarkibiy tuzilishi xususidagi ilmiy-nazariy yondoshuvlar.....	12
1.2.	Tijorat banklari depozit operatsiyalarining samaradorligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	32
1.3.	Tijorat banklari depozit operatsiyalarining xorij tajribasi va undan respublikamiz bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.....	43
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	50
<b>II BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINING QIYOSIY TAHLILI.....</b>	<b>52</b>
2.1.	Tijorat banklari depozit operatsiyalarining joriy holati tahlili.....	52
2.2.	O'zbekistonda tijorat banklari depozit operatsiyalari darajasining tahlili.....	68
2.3.	Tijorat banklarida depozit operatsiyalari amaliy holatining ekonometrik tahlili.....	77
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	88
<b>III BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>90</b>
3.1.	Mamlakat tijorat banklari depozit operatsiyalarini samaradorligini oshirishdagi muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	90
3.2.	O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit operatsiyalarining samaradorligini oshirish istiqbollari.....	100
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	107
	<b>XULOSA.....</b>	<b>108</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>111</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklari moliyaviy barqarorligidan, nafaqat tijorat banklari balki Markaziy banklar ham kuchli va tabiiy jihatdan manfaatdordirlar. Biroq, keyingi yillarda xalqaro moliya institutlarida har 5-10 yilda ro'y beradigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning barcha mamlakatlari banklari moliyaviy munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, «dunyo miqiyosida global moliyaviy inqirozdan oldin, 93 mamlakatda chorak asr mobaynida moliyaviy muassalalarda 117 marta tizimli va 50 dan ortiq jiddiy moliyaviy muammolar yuz berdi»<sup>1</sup>. Mazkur inqiroz holatlari milliy va xalqaro darajada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning resurs salohiyatini yanada mustahkamlash yuzasidan aniq talablar qo'yishni taqozo etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Markaziy banklari, yirik tijorat banklari, Bazel qo'mitasi, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi qator moliya muassasalari tomonidan tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida tijorat banklari moliyaviy resurslari manbalari, moliya bozori instrumentlari, depozitlarni barqaror manbalar hisobidan shakllantirish masalalari ochib berilgan. Biroq, tadqiqotlarda tijorat banklarida muddatli depozitlarni jalb qilish va hajmini oshirish, omonatchilarga to'lanadigan foiz to'lovlarining «jalb qiluvchanlik» darajasining zaifligi, banklarning resurslari tarkibida va mamlakat YaIMga nisbatan depozitlar ulushining pastligi kabi masalalar etarlicha ochib berilmagan. Xususan, tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini ta'minlashda aholi qo'lidagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini banklarga to'liq jalb qilish, muddatli depozitlarning asosiy summasi va ularga hisoblangan foizlarni to'liq va o'z vaqtida qaytarish bilan bog'liq masalalar dolzarbligini saqlab turibdi. Bularning barchasi tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini

---

<sup>1</sup> Financial stability: 10 questions and about seven answers. Speech delivered by Mr Jaime Caruana, General Manager of the BIS, at the 50th Anniversary Symposium of the Reserve Bank of Australia, Sydney, 9 February 2010. <https://www.bis.org/speeches/sp100209.htm>

oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O'zbekiston bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham respublikamiz banklarining recurs bazasini mustahkamlashga, banklarni kapitallashuv darajasini oshirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Jumladan, "2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha yetkazish masalasi"<sup>2</sup> va "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash vazifalari"<sup>3</sup> belgilab berilgan. Mamlakatimizda "2020–2025 yillarga mo'ljallangan respublikaning bank tizimini isloh qilish strategiyasida 6 ta bankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiy lashtirish"<sup>4</sup> nazarda tutilgan. Bu islohotlar provardida xususiy banklarning ulushini yanada oshirish hamda ularning recurs bazasini mustahkamlashni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi PF-158-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Bank tizimi islohotlarni jadallashtirish bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish asosida Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish taraqqiyot strategiyasida va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992 sonli "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan o'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda depozit munosabatlarini tartibga solishning nazariy-uslubiy xususiyatlari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur masala yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar O.Lavrushin, L.Batrakova, O.Jilan, M.Kovalev, A.Osmolovskiy, P.Rouz, E.Rode, O.Semibratova, L.Padalkina, K.Kempbellarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.<sup>5</sup>

O'zbekistonlik olimlar A.A.Omonov, Sh.Sh. Saipnazarov, A. Norov, T.M.Karaliev, U.D.Ortiqov, Sh.B.Ro'zmetov, B.K.Mirzamaydinov, S.M.Xodiev, Z.Ya.Raxmanov, A.M.Rahimov, I.I Jo'raevlarning<sup>6</sup> ilmiy ishlarida tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashda depozit operatsiyalarining rolini oshirish borasidagi muammolar tadqiq etilgan.

Ayni paytda, banklarning depozit operatsiyalarini samaradorligini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy, uslubiy va amaliy masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy manbalarning mavjudligiga qaramasdan mazkur yo'nalishda dolzarb hisoblanuvchi bir qator muammolar yoritilmasdan qolmoqda.

---

<sup>5</sup>Лаврушин О.И. и др. Банковское дело/ учебник. Москва.КНОРУС, 2016-795с. Коммерческие банки и их операции. –М.: Банки и биржи, 2015. -311 с. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. Учебник для вузов М.: Логос, 2005.- 325 с. О.Жилан. Депозитная политика коммерческого банка.-Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2013-107 с. Ковалев М.М., Осмоловский А.Д. Оптимальная структура портфеля банка. Сб. науч.статей подобщ. с-12, 2003 г. Роуз П.С. Банковский Менеджмент Пер. с англ.-Москва- Дело: 2003.-768с., Родэ Э.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма.–М.: Финансы и статистика, 1986.-358с., Семибратова О.И Банковское дело. Москва.Академия, 2004.-218с., Падалкина Л.С. Современная денежно-кредитная система капитализма. –М.: ВЗФЭИ, 1982. -489 с. John Y. Campbell, Andrew Wen-chuan Lo,“The Econometrics of Financial Markets”1994 y.

<sup>6</sup> Saipnazarov Sh.Sh. “Bank ishi va moliya”. O'quv qo'llanma. 2022 y. -112 b. Norov. A.R. “Bank ishi” darslik 2022-147 b. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 35 b., Qoraliev T.M «Pul va banklar» Darslik. T.: – «IQTISOD-MOLIYA», 2019 y. – 461 b, Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. “Moliya, pul muomalasi va kredit” i.f.n. diss. avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – 19.09.2008. –T., 2008. -20 b., Ro'zmetov Sh.B. “O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari”. i.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 26.; Mirzamaydinov B.K. Bank xizmatida marketing samaradorligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.- T., 2008.; Xodiyev S.M.. “Совершенство депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики”. автореферат дис. ... канд. экон. наук. 08.00.07– Ташкент, 2010 Raxmanov Z.Ya. “Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish”. iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. 08.00.07– Tashkent, 2018; Rahimov A.M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, –T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2019. 54 b.;Jo'raev I.I “O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash”. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, – T.: “akadyemiya noshirlik markazi” nashriyoti, 2020. 54 b

Bunday muammolar jumlasiga: depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mazkur siyosat bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining tarkibiy qismi ekanligining e'tiborga olinmasligi va buning natijasida siyosatga mustaqil tizim sifatida yondashilishi; tadqiqotlardan olingan nazariy-uslubiy tavsiyalarning amaliy faoliyat bilan bog'liq emasligi hamda olingan xulosalarning aksariyat holatlarda real vaziyatga mos kelmasligi; depozit operatsiyalarini samaradorligini takomillashtirish bo'yicha katta xarajat va vaqtni talab etmaydigan, shuningdek, mavjud jarayonlarni o'zgartirmasdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiyatning mavjud emasligini kiritish mumkin.

Tijorat banklari depozit samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish sohasidagi dolzarb muammolarning yetarli darajada va kompleks tadqiq qilinmaganligi hamda ularning yechimini topish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur dissertatsiya tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda tarkibiy tuzilmasini belgilab olishga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy ish rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lib, tijorat banklarida depozit operatsiyalarini samaradorligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

depozit operatsiyalarini samaradorligining iqtisodiy mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

tijorat banklari operatsiyalari ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

ATB "Mikrokreditbank" faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va strategik tendentsiyalarni baholash;

tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligi ishlab chiqish borasida xorij tajribasini o'rganish va O'zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etish

imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

bank depozit operatsiyalari samaradorligi oshirish bilan bog'liq mavjud muammolarini aniqlash;

bank depozit operatsiyalari samaradorligi oshirishni optimallashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari depozit operatsiyalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligi oshirishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, ekonometrik baholash, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va depozit siyosatlarini o'rtasidagi uzviy aloqadorlik va muvofiqlikni ta'minlash asosida banklarning mazkur faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfi hamda operatsion xarajatlarini qisqartirish asoslangan;

tijorat banking "Mijozlarning sodiqligi" modeli asosida qo'yilgan depozitlar yillar kesimida "past" ( $0 < D_p \leq 1$  yil), "o'rta" ( $1 \text{ yil} < D_o \leq 3$  yil), "yaxshi" ( $3 \text{ yil} < D_{ya} \leq 5$  yil va undan ortiq) sifatida baholash orqali depozit operatsiyalarini optimallashtirish asoslangan;

tijorat banklari uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari (asosan 1 yildan ortiq) o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali banklardagi transformatsiya riskini samarali boshqarish taklif etilgan;

O'zbekistondagi tijorat banklarining depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari depozitlari hajmining 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining depozit siyosatini boshqa siyosatlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, depozit operatsiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish taklif etilgan;

tijorat banki depozit operatsiyalarining samaradorligini optimallashtirish orqali mijozlarni bankka keng jalb etishning "Mijozlar sodiqligi" modeli ishlab chiqilgan;

bank depozit bazasini kengaytirish mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tijorat bankida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transformatsiya riskini samarali boshqarish bilan birga bir yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlardan foydalanish taklif etilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, yirik xorijiy banklar va O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari statistik ma'lumotlari tahlili natijalariga asoslanganligi hamda tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ilmiy tadqiqot ishini bajarish davomida olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar tijorat banklari depozit siyosatining nazariy asoslarini rivojlantirish va mazmunan boyitishga, uning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi va nazariy-uslubiy bilimlar doirasini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tijorat banklarida depozit operatsiyalarini samaradorligini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:



tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va depozit siyosatlari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik va muvofiqlikni ta'minlash asosida banklarning mazkur faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfi hamda operatsion xarajatlarini qisqartirish taklifi ATB "Mikrokreditbank"ning 2023-yilga mo'ljallangan depozit siyosatining asosiy yo'nalishlarida o'z aksini topgan va bank amaliyotiga joriy etilgan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tijorat banklarining depozit siyosatini boshqa siyosatlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, depozit operatsiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, depozit bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, depozit siyosatini amalga oshirish va joriy holatini tahlil etish hamda nazorat qilish tizimini takomillashtirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilib, yuqorida keltirilgan faoliyat yo'nalishlaridagi mehnat sarfini 4 foizga pasaytirgan holda bankning operatsion xarajatlarini 1,1 foizga kamayishiga olib kelgan;

tijorat bankinging "Mijozlarning sodiqligi" modeli asosida qo'yilgan depozitlar yillar kesimida "past" ( $0 < D_p \leq 1$  yil), "o'rta" ( $1 \text{ yil} < D_o \leq 3$  yil), "yaxshi" ( $3 \text{ yil} < D_{ya} \leq 5$  yil va undan ortiq) sifatida baholash orqali depozit operatsiyalarini optimallashtirish taklifi ATB «Mikrokreditbank»ning amaliyotiga joriy etilgan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024-yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tijorat bankinging 2023 yil yakuniga ko'ra bankka depozit qo'ygan mijozlar soni 5000 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan yuridik shaxslar depoziti 9 foizga va jismoniy shaxslar depoziti 11,5 foizga oshishga erishilgan;

tijorat banklari uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari (asosan 1 yildan ortiq) o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali banklardagi transformatsiya riskini samarali boshqarish taklifi ATB «Mikrokreditbank»ning risklarni boshqarish amaliyotiga joriy etilgan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024 yil 16-fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi tijorat bankida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transformatsiya riskini samarali boshqarish bilan birga bir yildan ortiq muddatga

jalb qilingan depozitlarni 132 mlrd. so'mga oshirish imkonini bergan;

O'zbekistondagi tijorat banklarining depozit operatsiyalari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari depozitlari hajmining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Mikrokreditbank" ATB tomonidan 2030 yilga mo'ljallangan bank umumiy strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan va amaliyotga joriy qilingan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024 yil 16 fevraldagi 04-16/5083-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi "Mikrokreditbank" ATBning uzoq muddatli istiqboldagi depozitlari hajmi hamda u bilan bog'liq asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda o'zaro muvofiqlashtirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 121 betni tashkil etgan.

## **I-BOB. TIJORAT BANKLARI DEPOZIT**

### **OPERATSIYALARINING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI**

#### **1.1. Bank depozit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va tarkibiy tuzilishi xususidagi ilmiy-nazariy yondoshuvlar**

Banklarning kelib chiqish davridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'rganib, tahlil qilib ko'riladigan bo'lsa, dastlabki banklarning paydo bo'lishi bilanoq omonat va depozit tushunchalari paydo bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

Xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadigan tijorat banklari depozitlarining nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganish bank faoliyati barqarorligining o'ta muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyoti tajribasidan ma'lumki, depozitlar bank majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etib, ularning barqarorlik darajasi bankning daromadlilikini va likvidligini ta'minlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Depozit operatsiyalari passiv bank operatsiyalari hisoblanib, banklar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, mazkur operatsiyalar bank resurslarini shakllanishida va bank aktivlarining optimal tarkibini aniqlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bank depozitlari-bu jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ularni saqlash va daromad olish maqsadida bank hisobvaraqlariga joylashtirilgan pul mablag'lari. Depozitlarning iqtisodiy mohiyati ularning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash va banklarning likvidligini ta'minlashga yordam beradigan bank tizimi uchun resurslar manbai sifatidagi rolikdan iborat.

Bank depozitlarining asosiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

Mablag'larni to'plash: depozitlar banklarga mijozlar tomonidan vaqtincha foydalanilmaydigan mablag'larni to'plash va ularni kreditlash va investitsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Likvidlikni ta'minlash: depozitlar banklarga o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur likvidlik darajasini ta'minlaydi.

Resurs bazasini shakllantirish: depozitlar banklarni kreditlash va investitsiya faoliyati uchun asosiy resurs bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Depozit operatsiyalari tarkibi

Bank depozit operatsiyalarining tuzilishi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

Depozitlarni jalb qilish: banklar mijozlarni jalb qilish, raqobatbardosh foiz stavkalari va depozitlarni joylashtirish shartlarini belgilash uchun turli xil marketing strategiyalaridan foydalanadilar. Yangi depozit mahsulotlarini ishlab chiqish va mijozlar xizmatini yaxshilash muhim rol o'ynaydi.

Depozitlarni joylashtirish: jalb qilingan mablag'larni kreditlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarga investitsiya qilishni o'z ichiga oladi. Depozitlarni samarali joylashtirish banklarga daromadlarni ta'minlash va xatarlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Depozit mablag'larini boshqarish: depozit portfelini monitoring qilish va tahlil qilish, likvidlik va foiz stavkalari xavfini boshqarish va qoidalarga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

Depozit operatsiyalarini o'rganishga nazariy yondashuvlar

Ilmiy adabiyotlarda bank depozit operatsiyalarini o'rganishda bir nechta asosiy nazariy yondashuvlar ta'kidlangan:

Klassik yondashuv: bozor muvozanati nazariyasiga asoslanadi va depozitlarni kreditlash va investitsiyalar uchun resurslar manbai sifatida ko'rib chiqadi. Asosiy e'tibor depozitlarning likvidligi va rentabelligini boshqarishga qaratilgan.

Keyns yondashuvi: iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va yalpi talabni boshqarishda depozitlarning rolini ta'kidlaydi. Depozitlar hajmining o'zgarishi pul ta'minoti va iqtisodiy faollik darajasiga ta'sir qiladi deb ishoniladi.

Institutsional yondashuv: depozitlarni tartibga solish muhiti, moliyaviy infratuzilma va mijozlarning xulq-atvor jihatlari kabi institutsional omillar ob'ektivi orqali ko'rib chiqadi. Depozit bozorining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan institutsional sharoitlarga e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy yondashuvlar: omonatchilarning xatti-harakatlarining psixologik jihatlarini va depozit mablag'larini boshqarish uchun murakkab moliyaviy vositalardan foydalanishni hisobga olgan holda xulq-atvor iqtisodiyoti va moliyaviy muhandislik elementlarini o'z ichiga oladi.

Depozit operatsiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri:

Bank depozit operatsiyalari iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular kapital to'planishiga hissa qo'shadi, investitsiyalarni rag'batlantiradi va bank tizimining likvidligini saqlaydi. Depozit mablag'larini samarali boshqarish banklarga xatarlarni minimallashtirish va moliyaviy notinchlik sharoitida barqarorlikni ta'minlashga imkon beradi.

Asosiy jihatlardan biri bu depozitlar hajmi va banklarning kredit faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikdir. Depozit bazasining ko'payishi banklarga kredit berishni kengaytirishga imkon beradi, bu esa iqtisodiy o'sishni va tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Biroq, depozitlarning haddan tashqari ko'payishi foiz stavkalarining pasayishiga va kredit portfelining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Depozit operatsiyalarini tartibga solish va nazorat qilish:

Depozit operatsiyalarini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Asosiy tartibga solish maqsadlariga quyidagilar kiradi:

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash: moliyaviy inqirozlarning oldini olish uchun likvidlik va kapitallashuv standartlarini belgilash.

Omonatchilarning manfaatlarini himoya qilish: depozitlarni sug'urtalash tizimini joriy etish va bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash.

Normativ talablarga rioya qilish: hisobot standartlarini joriy etish va banklar faoliyatini nazorat qilish.

Bank depozit operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari

Bank depozit operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari yangi texnologiyalarni joriy etish va iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar

bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalar va onlayn-banklarning rivojlanishi depozitlarni jalb qilish va boshqarish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Banklar mijozlarning zamonaviy ehtiyojlariga mos keladigan yanada moslashuvchan va qulay depozit mahsulotlarini ishlab chiqmoqdalar.

Tartibga solish muhitining o'zgarishi va yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi bank strategiyalarini moslashtirishni talab qiladi. Moliyaviy bozorlarning globallasuvi sharoitida banklar depozit mablag'larini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni saqlash bilan bog'liq yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kelishmoqda.

Tijorat banklari tomonidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonining yana bir muhim jihati shundaki, banklar o'zlarining moliyaviy vositachilik faoliyatidan kelib chiqib, jamiytdagi bo'sh turgan pul mablag'larini kapitalga aylantirgan holda, ulardan o'zi va jamiyat manfaatlari uchun foydalanadi. Ya'ni, depozit operatsiyalari nafaqat o'z egasiga foiz ko'rinishida daromad olib keladi, balki banklarning asosiy daromadlarini shakllantiruvchi aktiv operatsiyalarning samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining depozitlari, bank depozit bazasi mustahkamligi zamonaviy bank tizimida juda ham ko'p qo'llanilayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Aynan mazkur tushunchalar xususida iqtisodchi olimlarning o'z qarashlari mavjud.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Ye.F.Jukova va N.D.Eriashvililar fikricha, ko'plab banklarda qarz mablag'larining asosiy qismi – bu depozitlar (omonatlar) hisoblanadi. Bank amaliyotida “depozit” atamasi birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bank depozit shartnomasida qayd etilgan muayyan shartlar asosida bankka qo'yilgan mablag'lar, ikkinchidan, bankdagi omonat egalarining pul talablarini tasdiqlovchi bank kitoblariga kiritilgan yozuvlaridir<sup>7</sup>.

Shuningdek, yana bir iqtisodchi olim N.M.Rozanova “Depozitlar yoki omonatlar bank majburiyatlarining katta qismini tashkil etadi. Depozitlar aholi va

---

<sup>7</sup> Жукова Е.Ф., Эриашвили Н.Д.Банковское дело: учебник. “Финансы и кредит”. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. 169 с.

firmalarning pul mablag'lari sifatida tushuniladi, ular muayyan sharoitlarda va muayyan davrda bank hisob raqamiga o'tkaziladi»<sup>8</sup> degan fikr bildirgan.

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan O.I.Lavrushin va N.I.Valentsevalarning fikriga ko'ra - «dunyo bank amaliyotida depozit deganda pul yoki qimmat baho qog'oz ko'rinishda bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag'lar tushuniladi»<sup>9</sup>.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlardan biri V.L.Kireevning fikricha: «depozit – bu mablag' egasi tomonidan bankka saqlash uchun topshirgan va shartlariga ko'ra alohida hisobvaraqda saqlanadigan mablag'dir»<sup>10</sup>.

Xorijlik taniqli iqtisodchi olimlardan biri E.F.Jukovning fikricha, «depozit – bu mijoz tomonidan saqlash muddati va rasmiylashtirish shartlaridan qat'iy nazar bank tasarrufiga topshirilgan pul mablag'laridir»<sup>11</sup>.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchi olimlardan biri A.M.Tavasiev o'z ilmiy ishlarida «depozit – bu bank tomonidan kelishilgan muddat kelganda omonatchiga yoki uning vorisiga qaytarib beradigan pul yoki qimmatbaho qog'oz ko'rinishidagi mablag'»<sup>12</sup> degan fikrni ilgari surgan.

O'z navbatida, xorijlik iqtisodchi olimlardan M.M.Agarkov «depozitni aholi, korxonalar va tashkilotlar tomonidan bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarga saqlash uchun topshirilgan mablag' yoki qimmatli qog'oz»<sup>13</sup> deb hisoblaydi.

Undan tashqari, xorijlik iqtisodchi olim I.T.Balabanovning ilmiy ishlanmalarida «depozit – bu bank mijoz tomonidan bankka vaqtincha foydalanish ish uchun topshirilgan mablag'dir»<sup>14</sup>.

O'zbekistonlik olim S.M.Xodievning ta'kidlashicha depozit siyosati «depozit faoliyatining kompleks dasturi bo'lib, tijorat banki tomonidan amalga

---

<sup>8</sup> Розанова Н.М. Деньги и банки: учебник. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 241 с.

<sup>9</sup> О. И. Лаврушин, Н. И. Валенцева [и др.] Банковское дело. /Учебник; под ред. О. И. Лаврушина. - 12-е изд., стер. М. : КНОРУС, 2016. — 800 с.

<sup>10</sup> Банковское дело : учебник / В.Л. Киреев, О.Л. Козлова.-М.: КНОРУС, 2012.-240 с.(Для бакалавров).

<sup>11</sup> Жуков, Е. Ф. Банковское дело : учебник для бакалавров / Е. Ф. Жуков. — Москва : Издательство Юрайт, 2012. — 591 с.

<sup>12</sup> Тавасиев, А.М. Банковское дело: управление кредитной организацией. Учебное пособие / -2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2011. — 640 с.

<sup>13</sup> Агарков М.М. Основы банковского права. Авторский сборник. 2005. 336 с.

<sup>14</sup> Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: учеб. пособие / И.Т. Балабанов. - 3-е изд., перераб. и доп. - К.: Эльга, Ника-Центр, 2005. - 656 с.

oshirilayotgan depozit operatsiyalarining me'yoriy, tashkiliy va texnologik masalalarini qamrab oladi"<sup>15</sup> deb talqin etgan. Olimning fikricha, bankning depozit siyosati mustaqil tizimli ob'ekt hisoblanadi va yaxlitlik, tizimni tashkil etuvchi aloqalar, tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi, faoliyat olib borish va rivojlanish xususiyatlariga ega.

O'zbekistonlik yana bir olim Sh.B.Ruzmetovning "O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari"<sup>16</sup> nomli ilmiy ishida bevosita banklarning depozit siyosati yuzasidan mualliflik yondashuvi ishlab chiqilmagan bo'lsada, depozit portfelining tarkibiy tuzilmasi va uning bank faoliyati barqarorligi va likvidlilikning maqbul darajasini ta'minlashdagi o'rni yuzasidan bildirilgan mulohazalar depozit siyosatining iqtisodiy mohiyatini ochishga muayyan darajasida xizmat qiladi. Xususan, dissertatsiya ishida depozitlar bazasida tranzaktsion (talab qilgunga qadar) depozitlar hajmini kamaytirish va bosh e'tibor nisbatan barqaror hisoblanuvchi muddatli va jamg'arma depozitlar miqdorini ko'paytirishga qaratilishi, shu asosda bank faoliyatida yuzaga keluvchi inqiroz holatlarining oldini olish mumkinligi to'g'risidagi ilmiy xulosaga kelingan. Demak, tijorat banklarining depozit siyosati barqaror resurs bazasini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Professor Sh.Z.Abdullaevaning fikricha esa, jahon amaliyotida "depozit" deganda, faqatgina saqlash uchun moliya-kredit yoki bank muassasasiga berilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar emas, balki bank omonatlari bilan bir qatorda bojxona to'lovlari, yig'implar, soliqlar va hokazolarni to'lash uchun kiritilgan badallar ham tushuniladi<sup>17</sup>.

Professor A.A.Omonov o'z ilmiy tadqiqotlarida bank resurslarini boshqarishda strategik rejalashtirish kamida bir yildan o'n yilgacha mo'ljallanib ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqligini qayd etib o'tgan. Bunda asosiy e'tibor,

---

<sup>15</sup> Ходийев S.M. "Совершенствование депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики". автореферат дис. ... канд. экон. наук. 08.00.07– Ташкент, 2010. – 19 стр.

<sup>16</sup> Ходийев S.M. "Совершенствование депозитной политики коммерческих банков в условиях либерализации экономики". автореферат дис. ... канд. экон. наук. 08.00.07– Ташкент, 2010. – 19 стр.

<sup>17</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2017 yil, 732 b.



resurslarni jalb etish va joylashtirishni muddatlar bo'yicha muvozanatlashtirish, moliyaviy barqaror mijozlar tarkibini shakllantirish, resurslar jalb etishni omonatchilar va mijozlar bo'yicha tabaqalashtirish kabilarga qaratishni maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan<sup>18</sup>. Ta'kidlash lozimki, resurslarni jalb etish va joylashtirish muddatlarini muvofiqlashtirish, resurslar jalb etishni omonatchilar va mijozlar bo'yicha diversifikatsiyalashishiga erishish tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish uchun asosiy dastak bo'lib hisoblanadi.

Professor F.I.Mirzaev o'zining tadqiqotlarida banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslariga to'xtab o'tgan. Xususan, bank xizmatlari bozorida resurslarni jalb etish, mablag'larni joylashtirish va boshqa barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni banklararo raqobatning asosi sifatida ko'rsatib o'tgan<sup>19</sup>. Demak, tijorat banklari depozit operatsiyalarining nazariy va amaliy jihatlari to'liq o'rganish, tahlil etish va undan tegishli xulosalar chiqarish banklarning barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit resurslarini shakllantirishda depozitlar asosiy o'rin egallaydi. Ularning asosiysi talab qilib olinadigan depozitlarga, muddatli hamda jamg'arma depozitlariga bo'linadi.

Talab qilib olinadigan depozitlar joriy hisobvaraqlardan omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi. Joriy hisob-varaqning egasi bankdan chek daftarchasini oladi. Bunda u pul olish bilan birga iqtisodiy munosabat vakillari bo'lgan korxonalar, tashkilot, muassasalar bilan ham hisob-kitob operatsiyalarini olib borishi mumkin.

Muddatli omonatlar – mijoz tomonidan bankka ma'lum muddat-ga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orqali mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bunda foiz stavkalari qo'yil-maning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

---

<sup>18</sup> Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaavtoreferati, –T.: BMA, 2008. 11 b.

<sup>19</sup> Mirzaev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaavtoreferati, –T.: BMA, 2009. 11 b.

Muddatli qo'yimalarning turlaridan biri, bu mablag'larni jalb qilishning aniq qayd etilgan vaqtga mo'ljallangan depozit sertifikatlar hisoblanadi. Ularni muomalaga 1961 yili birinchi bo'lib «Ferst neyshnl siti bank» kiritgan. Hisob egalari ularning nomlari yozilgan, to'lash muddati va foiz darajasi ko'rsatilgan maxsus guvohnomalar beriladi.

Hozirgi vaqtda tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda depozit sertifikatlaridan foydalanmoqda. Sertifikatda ko'rsatilgan qo'yilma muddati tugagandan so'ng, uning egasi qo'yilma miqdorini va kelishilgan foizlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yimalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular to'liq summada yoki bo'lib-bo'lib qo'yilishi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' qo'yish bilan bog'liq munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovchilik asosida turli xil maqsadli qo'yimalarni, muddatli yoki talab qilish hamda olish mumkin bo'lgan jamg'armalarni qabul qiladilar. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda «Yangi yil qo'yimalari» deb nomlangan turi ham mavjud. Bunda bank yil davomida, yangi yilni nishonlash uchun katta bo'lmagan qo'yimalarni qabul qilib boradi va yil oxirida omonatchilarga pullarni qaytaradi, pul jamg'arishni xohlovchilar pul jamg'arishni keyingi yangi yilgacha davom ettirishlari ham mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu qo'yimalar oddiy fuqarolar orasida keng qo'llaniladi.

Iqtisodiy tarkibi bo'yicha depozitlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Muddatli depozitlar;
2. Talab qilib olinguncha depozitlar;
3. Jamg'arma depozitlar;

Bu guruhlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tasniflanadi.

Depozit turlarining tavsiflanishi<sup>20</sup>

Depozitlar		
Muddatli depozitlar	Talab qilib olinguncha	Jamg'arma depozitlar
3 oygacha	LORO	Muddatli
	Kontokorrent	Muddatli (qo'shimcha quyilmalar bilan)
3-6 oygacha	Overdraft	Shartli
6-9 oygacha		Shaxsiy talab qilib olinguncha
9-12 oygacha	NOSTRO	Talab qilib olinguncha
		Joriy hisob raqamda

Muddatli depozitlar o'zlarining muddatlariga bog'liq ravishda quyidagicha tasniflanadi:

- 3 oygacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha muddatli depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha muddatli depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha muddatli depozitlar;
- 12 oydan oshiq muddatli depozitlar.

Talab qilib olinguncha depozitlari mablag'larning harakteri va egasiga bog'liq ravishda tasniflanadi.

turli mulkchilik shakllariga asoslangan korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitoblar, joriy va byudjet hisobraqamlaridagi mablag'lari;

iqtisodiy maqsadi bo'yicha har xil fondlar saqlanadigan maxsus hisobraqamlardagi mablag'lar;

kapital qo'yilmalar uchun saqlanayotgan korxonalarining o'z mablag'lari;

korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitoblaridagi mablag'lari;

korrespondentlik hisobraqamlaridagi boshqa banklar bilan hisob-kitoblar

<sup>20</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

uchun mablag'lar;

mahalliy byudjetlarning mablag'lari jamg'arma qo'yilmalari ularning saqlanish xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

- muddatli;
- muddatli qo'shimcha ajratmalar bilan;
- yutuqli;
- pul-buyum yutuqli, mukofotli;
- shartli;
- joriy hisobraqamlar;
- talab qilib olinguncha;
- jamg'arma sertifikatlari;
- plastik kartochkalar;
- kredit kartochkalar va boshqalar.

Muddatli qo'yilmalar (omonatlar) - bu depozit hisobraqamlaridagi qo'yilmalar bo'lib, uning egasi o'zining qo'yilmasidan ma'lum davrga foydalanishdan voz kechadi. Muddatli depozitlar qo'yilma bo'lgani uchun ular bankning jalb etilgan mablag'lari hisoblanadi. Ular odatda to'liq summada qabul qilinadi. Ko'pincha qo'yilmaning minimal qiymati ham talab etiladi (masalan, 10000 so'm). Ko'pchilik bank muassasalarida odatda muddatli qo'yilmalarga qo'yilma qilish faqatgina tadbirkor mijozlarga ruxsat etiladi, xususi mijozlar (aholi)ga esa jamg'arma qo'yilmalarga qo'yilma qilish tavsiya etiladi.

Muddatli qo'yilmalar omonatchi tomonidan ma'lum maqsadlarga yo'naltirilsada, lekin omonatchi o'zining qo'yilmasidan xohlagan vaqtida foydalana olmaydi. Omonatchining o'z qo'yilmasini qaytarib olish huquqini o'rnatilgan ikki xil shakli mavjud:

- muddati aniq belgilangan muddatli qo'yilmalar;
- oldindan talab qilib ogohlantiriladigan muddatli qo'yilmalar.

Masalan, 15 may kuni 3 oylik muddatli qo'yilma qo'yilsa, qo'yilmani qaytarish muddati 15 avgustda keladi. Omonatchi shu muddatdan keyin qo'yilmani qaytarishni talab qilishi mumkin.

Endi ikkinchi shaklga kelsak, omonatchi 15 mayda oldindan talab qilish ogohlantiriladigan muddatli qo'yilma qilsa, omonatni qaytarish muddati faqatgina qaytarishni talab qilish muddatidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, ogohlantirish 13 sentyabrda qilinsa, u holda qo'yilmani qaytarish 13 dekabrda amalga oshiriladi. Bu ikki shakldan amaliyotda ko'proq birinchi shakl ishlatiladi. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foizlar hisoblanadi. Foiz stavkasi kelishuv bilan belgilanadi. Boshqa narxlar singari ular ham talab va taklif asosida belgilanadi. Foiz stavkalari xaqida quyidagini aytish mumkin: ko'pgina banklarda qo'yilmaning muddati, qanchalik uzun bo'lsa, foiz stavkasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Lekin, yana shunday qo'yilmalar summasi qanchalik yuqori bo'lsa, foiz stavkalari ham shunga mos ravishda yuqori bo'lishi ham ko'p kuzatiladi. Muddatli depozitlarning omonatchilar uchun foydali tomoni shundan iboratki, ular bu qo'yilmalar bo'yicha talab qilib olinguncha depozitlarga nisbatan ancha yuqori foizli daromad oladilar. Bu omonatchilar uchun rag'batlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Muddatli omonatlarda talab qilish muddati aniq belgilanganligi sababli, uning egasi shu davr ichida bu mablag'lardan foydalana olmaydi. Agarda omonatchi qo'yilmani muddatdan oldin talab qilsa, ular bo'yicha foiz to'lanmasligi yoki juda past miqdorda to'lanishi mumkin. Bu jihati mijoz uchun bu depozitning kamchiligi hisoblanadi, ya'ni mijoz uchun bu depozit likvid hisoblanmaydi va mijoz bu depozitdagi mablag'lardan joriy to'lovlar uchun foydalana olmaydi. Banklar uchun muddatli depozitlardan ustunligi shundan iboratki, muddatli qo'yilmalarni talab qilib olinguncha qo'yilmalariga nisbatan kredit operatsiyalariga samaraliroq joylashtirish mumkin. Chunki banklar depozit muddati davomida bu mablag'lardan erkin foydalanishi mumkin. Yana bir ustunligi muddatli depozitlar bo'yicha majburiy rezerv normasi talab qilib olinguncha depozitlarnikiga nisbatan ancha past bo'ladi. Shunday qilib, muddatli depozitlarni mijoz uchun ustunligi yuqori foiz daromadlarni olish bo'lsa, bank uchun esa bankning likvidligini nisbatan kam miqdordagi operativ rezerv bilan ham ta'minlash imkoniyatidir.

Uning asosiy qismi jismoniy shaxslar mablag'lari hisobiga shakllantirilgan. Bu albatta respublika bank tizimida keyingi yillar mobaynida aholi qo'lidagi bo'sh

mablag'larini muddatli depozitlarga jalb qilish borasida amalga oshirilgan bir qator chora tadbirlarning boshqa tijorat banklari qatorida tijorat bankida ham o'z samarasini berayotganligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek bankning muddatli depozitlari tarkibida davlat tashkilotlarining muddatli depozitlari 29,7% foizni, hukumatga tegishli bo'lgan muddatli depozitlar 17,7% foizni tashkil qilgan.

Jamg'arma depozitlari bu qo'yilmalarni deyarli barcha banklar qabul qiladi, faqatgina boshqa sohaga ixtisoslashgan banklar qabul qilmasligi mumkin. Xorijiy banklarda jamg'arma ko'yilmalari rentabellikni ta'minlash uchun moliyalashtirishni asosiy manbalaridan hisoblanadi. Bu depozitning muddatli depozitdan farqi shundan iboratki, bu depozitga ko'pincha aholi qo'yilmalari qabul qilinadi, muddatli depozitlarga esa summasi yuqori bo'lgan qo'yilmalar qabul qilinadi. Jamg'arma depozitlariga qo'yilmalar bo'laklab qo'yilishi yoki olinishi mumkin. Mijoz har doim ham o'z depozitidagi mablag'ni qaytarishni erkin talab qila olmaydi. U qo'yilmani to'liq yoki bir qismini qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo'lsada, lekin ko'pincha bu muddatli majburiyatlarga bog'liq bo'ladi. Jamg'arma depozitlarining banklar uchun ustunligi shundan iboratki, jamg'arma qo'yilmalari odatda uzoq muddatli xususiyatiga ega bo'ladi, bu esa bank uchun uzoq muddatli kreditlashning manbasi bo'lib xizmat qiladi, banklar uchun bu depozitlarning kamchiligi quyidagilardan iborat.

1. Bu depozitlar bo'yicha yuqori foizlar to'lanadi natijada banklarning marjasi kamayadi, ya'ni aktiv va passiv kredit operatsiyalari bo'yicha foizlar ayrilmasi kamayadi.

2. Bu qo'yilmalarning turli xil omillarga ta'sirchan ekanligi (siyosiy, iqtisodiy, psixologik omillar), bu esa qo'yilmalar birdan bankdan chiqib ketishini tezlashtirib yuborishi mumkin va bankning likvidligi yo'qolishiga sabab bo'ladi.

3. Banklar bu qo'yilmalarni doimiy ravishda yangilab tura olish qobiliyatiga ega emas.

Jamg'arma depozitlarining butun iqtisodiyot uchun ahamiyati. Pullarni jamg'arma kassalarida saqlash investitsiya va iqtisodiy o'sishga sharoit yaratadi. Bunda iqtisodiyotning samaradorligi, bu mablag'lar asosan investitsiya jarayoniga

jalb etilsagina saqlanishi yoki o'sishi mumkin.

Pullarni jamg'arma kassalarida saqlanishi mulk yaratilishini anglatadi. Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti esa xususiy mulkchilikka asoslanadi.

Mijoz uchun bu depozitning ahamiyati shundaki, mijozlar bu depozitlarga pulni qo'yish bilan ko'zda tutilmagan har xil harajatlar uchun rezerv tashkil etadi, pulni yig'adi va kapital tashkil etadi.

Talab qilib olinguncha depozitlari. Talab qilib olinguncha depozitlari deb shunday depozitlarga aytiladiki, ular talab qilib olinguncha hisobraqamlariga to'liq yoki qisman qaytarilishini talab qilishi mumkin. Talab qilib olinguncha depozitlarini bir necha xususiyatlariga ko'ra quyidagicha ifodalash mumkin. Talab qilib olinguncha depozitlarini bu qo'yilmalar bo'lib, ular bankning jalb etilgan mablag'lariga depozitlar bo'yicha majburiyatga kiradi.

- talab qilib olinguncha depozitlar mijozlar tomonidan istalgan maqsadlarda tashkil etilishi mumkin, faqatgina qonun doirasida. Odatda ular mijozning to'lov oborotini amalga oshirish uchun tashkil etiladi;

- mijoz o'z mablag'larini qaytarilishini istalgan vaqtda talab qilishi mumkin. Shuni aytib o'tish lozimki, talab qilish chegarasi summada cheklanmagan, faqatgina qo'yilma summasi chegarasida;

- talab qilib olinguncha depozitlariga to'lanadigan foizlar boshqa depozitlarnikiga nisbatan ancha past (masalan, yillik 0,5%) yoki ularga foiz umuman to'lanmaydi. Bunga asosiy sabab, banklar bu qo'yilmalardan boshqa depozitlarga o'xshab kredit operatsiyalarida erkin foydalana olmaydi.

Mijozlar uchun talab qilib olinguncha depozitlarining ustunligi va kamchiligi quyidagilardan iborat.

- talab qilib olinguncha depozitlari, birinchi navbatda, to'lov oborbtini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Korxonalar pul mablag'larini bankda saqlashlari shart va hamma to'lovlarni aynan shu hisobraqam orqali amalga oshirishlari lozim. Bu hisobraqam talab qilib olinguncha hisobraqamlari hisoblanadi;

- kimki naqd pulga ega bo'lsa, u o'z pulini yo'qolishdan, o'g'irlanishidan

va yo'q qilinishidan (masalan, yong'in natijasida) saqlashi lozim. Bu pullarni po'lat shkaf yoki seyflar sotib olib saqlash yoki bank sefini ijaraga olib saqlashdan ko'ra, ularni bankning talab qilib olinguncha depozitlarida saqlash ham birga mijozlar naqd pulni ortiqcha ko'tarib yurish g'amidan ham qutulushadi;

- talab qilib olinguncha depozitlariga foizlar to'lanmaydi yoki juda past foizlar to'lanadi;

- bu depozitlarga ham pullarni to'liq yoki bo'laklab qabul qilinishi mumkin;
- bu depozitlardan naqd pullarni Markaziy bank belgilangan tartibda beriladi.

Banklar uchun talab qilib olinguncha depozitlarning ustunligi va kamchiligi quyidagilardan iborat:

- banklar bu depozitlarni saqlashdan bevosita manfaatdor emaslar, balki ular asosan bu hisobraqamlarni yuritishdan, ya'ni ularni hisobini yuritish, to'lovlarni bajarish va hokazolardan daromad olishadi.

- bu hisobraqamlarni yuritish, ularni hisobini olib borish to'lov va boshqa operatsiyalarni bajarish uchun bank qo'shimcha personalga ehtiyoj sezadi va bu qo'shimcha personalga qo'shimcha harajat qiladi;

- bank barcha depozit turlari bo'yicha Markaziy bankda minimal rezerv saqlanishi lozim O'zbekistonda hozir bu rezerv 15% foizni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, bank o'z likvidligini ta'minlash uchun yuqoriroq operativ rezerv saqlashi lozim.

Mablag'larni tashkil topishi jihatidan qimmatli yoki arzon mablag'lar guruhiga ajratish mumkin. Bu erda asosiy e'tibor, depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag'larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag'lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon bank resurslari guruhiga esa, o'z – o'zidan aniqki nisbatan nobarqaror xususiyatga ega mablag'lar kiradi.



**Tijorat banklari depozit resurslarining tasniflanishi<sup>21</sup>**

Belgilariga ko'ra	Turlari
Omonatchilarning turiga ko'ra depozitlar	Jismoniy shaxslar; Yuridik shaxslar: Davlat tashkilotlari: Nodavlat tashkilotlar: Banklar.
Valyuta turiga ko'ra depozitlar	Milliy valyutada Xorijiy valyutada
Foydalanish muddatiga ko'ra depozitlar	Muddatli Talab qilib olguncha
Barqarorlik darajasiga ko'ra depozitlar	Barqaror Nobarqaror
Bahosiga ko'ra depozitlar	Qimmat arzon
Boshqarish darajasiga ko'ra depozitlar	Boshqariladigan boshqarilmaydigan

Tijorat banklari minimal risk sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun, banklarning jalb qilgan majburiyatlari va talablari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. Odatda, bu ko'pgina tijorat banklarida amalga oshirish murakkab bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi.

1.2-jadval ma'lumotlari asosida quyidagi xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muddatli depozitlar bank uchun boshqarish oson, lekin qimmat resurs hisoblanadi. Aksincha, talab qilib olinguncha depozitlar bank uchun arzon, lekin boshqarish qiyin bo'lgan resurs hisoblanadi. Bundan tashqari tijorat banklari o'zlarining kredit salohiyatini oshirish uchun barqaror depozitlari salmog'ini oshirishlari lozim bo'ladi. Bu turdagi depozitlar qimmat resurs bo'lsada, banklar ularni aniq muddatga daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarga yo'naltirishlari mumkin bo'ladi.

Depozitlarning keyingi turi - bu ko'pgina tijorat banklarining depozit bazasining asosiy qismi shakllanadigan jismoniy shaxslar depozitlaridir. Fuqarolarning pul daromadlari va jamg'armalari bank resurslarining doimiy hamda

<sup>21</sup> Жадвал муаллиф томонидан тузилди.

barqaror manbai hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning omonatlari, qoida tariqasida, «kichik» toifaga kiradi va agar ular katta miqdorda jalb qilinsa, bank uchun ahamiyatli bo'ladi. Banklar jismoniy shaxslar depozitlarining katta miqdorda jalb eta olsa, bu bankning depozit bazasini diversifikatsiya qilish va likvidlik bilan bog'liq ba'zi muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar bilan amalga oshirilgan depozit operatsiyalarining ahamiyati shundaki, ular nazorat qiluvchi organlar tomonidan alohida tartibga solinishi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda dunyoning 110 dan<sup>22</sup> ortiq mamlakatlarida aholi omonatlarini himoya qiluvchi turli xil tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Keyingi depozit turi - bu bank depozitlaridir. O'z navbatida, bank depozitlarini alohida turlarga ajratish zaruriyati quyidagi sabablarga bog'liq:

- bank depozitlari qisqa muddatli bo'lib, bu ulardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda foydalanish imkoniyatini pasaytiradi;

- mazkur depozitlarning hajmi odatda katta bo'ladi va ular bank uchun qimmat resurs hisoblanadi;

- ma'lum bir muddatga tuzilgan shartnoma asosida boshqa banklarning omonatlarini jalb qilish, ularni bank likvidligini tartibga solish vositasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi (banklararo kredit bilan bir qatorda).

Shuni qayd etish joizki, mamlakatimizda bozor munosabatlarning chuqurlashuvi banklararo raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa, tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Chunki, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar bank mijozlari tomonidan qo'yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag'ida ma'lum vaqtgacha saqlanadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Iqtisodchi olimlardan O.D.Jilan depozitlarni barqarorlik darajasiga qarab uchta guruhga ajratishni taklif qiladi.

---

<sup>22</sup> Татаринова Л.В. Ресурсы коммерческого банка.: Учебное пособие,-Иркутск: БГУ, 2017,-102 с.

- barqaror depozitlar. Ushbu depozitlar aniq muddatga jalb qilinadi va uzoq muddat bank ixtiyorida bo'ladi;

- shartli-barqaror depozitlar. Mazkur depozitlar tarkibiga muddatli depozitlarning egasi tomonidan muddatidan oldin qaytarib olinadigan qismi va talab qilib olinguncha depozitlarning bank tomonidan tahlil qilingan barqaror qismi kiritiladi;

- nobarqaror depozitlar. Bu turdagi depozitlarga davriy oraliqda bankka kelib tushadigan va kelgusida yuzaga keladigan o'zgarishlarni oldindan bilish qiyin bo'lgan talab qilib olinguncha depozitlarni kiritib o'tadi.

Bizning fikrimizcha, depozitlarni yuqorida keltirib o'tilgan turlarga ajratilishi, kelgusida banklar tomonidan ularni muddatiga va qiymatiga ko'ra to'g'ri joylashtirish nuqtai-nazaridan juda ham zarur hisoblanadi.

O'z navbatida, tijorat banklari depozit mablag'lari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlariga korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqlarida saqlanadigan pul mablag'lari kiradi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlarga bank nisbatan past miqdorda, ayrim hollarda esa, umuman foiz to'lovlari to'lamaydi. Shu jihatdan, tijorat banklarining ushbu depozit manbasi nobarqaror moliyaviy manba sifatida ta'kidlashimiz mumkin. Chunki bank ushbu manbalar hisobidan aktiv operatsiyalarni amalga oshiradigan bo'lsa, uning faoliyatida turli iqtisodiy muammolar vujudga keladi. Masalan:

- resurslarni boshqarish bilan bog'liq muammolar;
- resurslarning samaradorligi bilan bog'liq muammolar;
- bank likvidliligi bilan bog'liq muammolar.

Tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozitlar moliyaviy jihatdan barqaror manba hisoblanadi. Bunda bir yil va undan kam muddatga qabul qilingan omonatlar qisqa muddatli omonatlar, bir yildan ortiq muddatga qabul qilingan

omonatlar uzoq muddatli omonatlar hisoblanadi<sup>23</sup>. O'z navbatida, banklar ushbu depozit turi bo'yicha yuqori foiz to'lovlarini to'laydi. Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablag'ini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz to'lovlarini to'liq yoki qisman to'lamaslik huquqiga ega bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlar, jumladan AQShda jismoniy shaxslar o'rtasida depozitlarning eng rivojlangan turi – bu jamg'arma depozitlar hisoblanadi. Jamg'armaning ushbu turida bank omonatchiga uning mablag'i harakati, qoldig'i va unga hisoblangan foizlar haqidagi ma'lumotni aks ettiruvchi jamg'arma daftarchasini beradi. Jamg'arma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan depozit sertifikatlarini ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda jamg'arma depozit(omonat)lar xususida aniq yondoshuv mavjud emas. Rus iqtisodchisi G.S.Panova jamg'arma depozitlarni kredit muassaslariga turli muddatdlarga, aniq maqsadni ko'zlangan holda, uzoq muddatga qo'yilgan jamg'armalar sifatida talqin qiladi.<sup>24</sup> Ushbu depozitning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib, olimlar o'rtasida uning asosiy manbasini aholi jamg'armalari tashkil etishi bo'yicha yagona yondashuv mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari depozit bazasini shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilishda uning etarliligi va barqarorligi xususida iqtisodchi olimlar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud.

Odatda, depozit bazasi deganda, depozit jalb qilish huquqiga ega bo'lgan tijorat banklari va boshqa moliya-kredit muassasalariga yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli depozitlarga joylashtirilgan barcha pul mablag'lari tushuniladi.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi A.S.Tarasovning fikricha – «depozit bazasi

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi

<sup>24</sup> Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.

aholi va yuridik shaxslarning muddatli depozitlari yig'indisi sifatida aniqlanadi»<sup>25</sup>.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari depozit bazasi tarkibiga mamlakat qonunchiligida belgilab qo'yilgan talablar va shartlar asosida bank muassalariga jalb qilingan barcha depozitlarni kiritish mumkin.

Depozit bazasining barqarorligi tijorat banklari aktiv operatsiyalarini barqaror rivojlantirishning muhim omili, bank passivlari barqarorligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olim N.A.Lunyakova<sup>26</sup> tijorat bankining depozit bazasi mustahkamligini ta'minlashda depozit riskini inobatga olish, uni baholash, tasniflash zarurligini ta'kidlaydi va muallif depozit riskini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tadi.

1. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lar turi bo'yicha depozit riski: talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha riski va muddatli depozitlar bo'yicha depozit riski. Biz tasniflashning ushbu turi asosli deb hisoblaymiz, ammo tijorat bankining depozit riskini jalb qilingan mablag'lar turi bo'yicha chuqur tahlil qilish uchun kredit muassasasi tomonidan jalb qilingan depozit mablag'larini muddatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- muddati 30 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 31 dan 90 kungacha bo'lgan depozitlar;
- muddati 91 dan 180 kungacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- muddati 181 kundan 1 yilgacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- muddati bir yildan ortiq bo'lgan uzoq muddatli depozitlar.

Bunday tasniflanish tijorat banki uchun depozitlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish va o'z resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2. Tijorat banklarining depozit riskini depozit mablag'lari sub'ektlari toifasi bo'yicha tasniflash:

- yuridik shaxslarning mablag'larini qaytarib olish bilan bog'liq depozit riski;

---

<sup>25</sup> [Тарасов А.С.Формирование депозитной базы и ее влияние на устойчивость коммерческого банка.](#) Автореф. дис... канд. эк. наук. – Ташкент: Москва. 2011. – 23 с.

<sup>26</sup> Н. А. Лунякова. Депозитные риски в банковской деятельности. – Севастополь: Рибэст. – 2009. – 208 с.

- jismoniy shaxslar va kredit tashkilotlari mablag'larini qaytarib olish bilan bog'liq depozit riski.

3. Tijorat banklarining depozit risklarini jalb qilingan mablag'larning valyutasiga qarab tasniflash:

milliy valyutadagi omonatlarning shakllanishi va bankning xorijiy valyutadagi depozitlari bo'yicha depozit riski. Shu bilan birga, biz o'rganish davomida respublikamiz tijorat banklariga nisbatan depozit valyutasi bo'yicha depozit xavfi katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaymiz, chunki ularning depozitlari tarkibida xorijiy valyutadagi majburiyatlarning ulushi juda katta. Chunki so'nggi yillarda mamlakatdagi devalvatsiya darajasining yuqori ekanligi, banklar tomonidan xorijiy valyutalar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni to'g'ri baholash imkonini kamaytiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylari natijalariga ko'ra, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar ulushi o'tgan yilning shu davridagi 48 foizdan 42 foizgacha pasaygan<sup>27</sup>. Masalan, milliy valyutaning yuqori devalvatsiya sur'ati aholining jamg'arish kayfiyatiga va faolligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan.

4. Tijorat banklarining depozit riskini bashorat qilish imkoniyatiga qarab tasniflash: kutilgan depozit riski va kutilmagan depozit riski. N.A.Lunyakova tomonidan taklif etilgan ushbu mezonga biz to'liq qo'shilmaymiz. Bizning fikrimizcha, depozit riskini bashorat qilish va baholash mumkin, ammo uni aniq darajasini bilib bo'lmaydi.

5. Tijorat banklarining depozit risklarini paydo bo'lish manbai bo'yicha tasniflash: bank faoliyatiga bog'liq bo'lmagan depozit riski, bankning faoliyatiga bog'liq bo'lgan depozit riski.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, boshqa tuzilmalar qatori bank tizimi va uning faoliyatini takomillashtirish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar, shuningdek, bank xizmatlari ommabopligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zamonaviy sharoitda

---

<sup>27</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari.

banklar depozit operatsiyalarining samaradorligini iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish jarayonlari faollashtirilishini taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda depozit operatsiyalarining samaradorligini baholash tijorat banklarida mazkur yo'nalishdagi analitik ishlarni soddalashtirish bilan bir qatorda, amaliy faoliyatda yuzaga kelayotgan muammolarni barataf etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, depozit siyosatining strategik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan talqin etilishi uning tarkibiy tuzilmasi va vazifalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **1.2. Tijorat banklari depozit operatsiyalarining samaradorligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarga mos holda bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyat samaradorligini oshirish jarayonida fundamental o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu banklarning strategik maqsadlarini amalga oshirish va mustahkam resurs bazasini shakllantirishda depozit siyosatining ahamiyati va rolini oshirish hamda uni takomillashtirish bilan bog'liq masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini, shu jumladan, bank tizimini modernizatsiyalash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bank tizimidagi islohotlarning samaradorligini yanada oshirishda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarning zamon talablariga mos ravishda ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Qonunchilik Palatasi tomonidan 2019 yilning o'zida bank tizimga oid 4 ta qonun yangidan qabul qilindi. Bu esa, respublikamiz bank tizimning xalqaro bank tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalashib

borayotganligidan, mamlakatimiz banklarining xizmatlar ko'lamini va sifatini yangi bosqichga olib chiqilayotganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimiga aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishonchini yanada mustahkamlash, iqtisodiyotdagi bo'sh turgan pul mablag'larini uzoq muddatli bank depozitlariga jalb etish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu borada tijorat banklari tomonidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish, depozitlar bilan bog'liq hisob-kitoblar tizimini samarali amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish uchun mamlakatimizda amal qilayotgan qonunlar va qonunosti hujjatlarining o'rni beqiyosdir. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirishda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Banklar tomonidan resurs jalb qilishni yanada kengaytirish, aholi omonatlari hajmini yanada oshirish, yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish banklar kreditlash salohiyatini kengayishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan ham rasurs jalb qilish imkoniyatiga ega. Bunda banklar qimmatli qog'ozlarni muomilaga chiqarib, aholi va yuridik shaxslar qo'lida bo'sh pul mablag'larini o'ziga resurs sifatida jalb qiladi va jalb qilingan pul mablag'lari hisobidan kredit ekspansiyalarini amalga oshiradi.

Darhaqiqat, tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z sohalari bo'yicha ishlab chiqarishni amalga oshirishga moliyaviy jihatdan ko'maklashishi, aniqroq aytganda o'z kreditlarini taklif etishi talab etiladi.

Lekin shu o'rinda ta'kidlash joizki, tijorat banklari bu – tijorat xususiyatiga ega va shu asnodan faoliyat yurituvchi yuridik shaxs bo'lib hisoblandi. Qaysiki xo'jalik yurituvchi sub'ektlari uchun pul mablag'lariga egalik qilish yoki aniqroq aytganda ularni o'z faoliyatiga jalb qilish zaruriyati mavjud bo'lsa, tijorat banklari ham bunday muammodan holi emas.

Bu o'rinda tijorat banklari resurslari shakllanishini tahlil qilish va ularni qay yo'sinda foydalana olish imkoniyatiga ega ekanligini yoritish muhim amaliy



hamda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining resurslari odatda, o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar va qarz mablag'laridan tashkil topadi. Resurs manbaining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil etsa, banklarga bo'lgan ishonchning asosiy manbaini o'z mablag'lari tashkil etishi barchamizga ma'lum.

I.X.Raxmanov va X.X.Otamurodovlarning fikricha, tijorat banklari tomonidan depozit mablag'larining jalb qilinishi, bankning kredit sifatida beriladigan resurslarini shakllantirishga zamin yaratadi va kredit tarzida beriladi, shuningdek bu holat boshqa bank tomonidan yana depozit mablag'lari sifatida jalb qilinib, shu tijorat banking kredit resurslari sifatida shakllanib, kredit tarzida berilib boradi. Mazkur holat bir necha bor boshqa banklar amaliyotida ro'y berib, bir-biri bilan bog'lanib boraveradi. Bu jarayon depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasini anglatadi. Bunga misol sifatida mualliflar quyidagi jadvalni keltirib o'tishgan.

### 1.3-jadval

#### Depozit multiplikatsiyasi<sup>28</sup>

<b>Bank</b>	<b>Depozit</b>	<b>Kredit</b>	<b>Majburiy rezerv (12,5 %)</b>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
A bank	1000	875	125
B bank	875	766	109
V bank	766	670	96
S bank	670	586	84
Ye bank	586	513	73
va h.k.	...	...	...
<b>Jami</b>	<b>8000</b>	<b>7000</b>	<b>1000</b>

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida jalb qilingan depozit miqdorining multiplikatsiya chegarasini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin<sup>29</sup>:

<sup>28</sup> Рахманов И.Х., Отамуродов Х.Х. Тижорат банклари кредит потенциали ва уни ошириш йўллари. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журналі. №2, апрель, 2017 йил.

<sup>29</sup> <http://economics.studio/finansistam> - сайти маълумотлари

$$D = D_0 * \frac{1}{R} \quad (1)$$

D – bank tizimida yaratilishi mumkin bo'lgan depozitning maksimal qiymati;

$D_0$  – birlamchi depozit miqdori;

R – bir birlik depozit uchun rezerv. Bunda  $R=0,125$  (12,5%)ga teng.

$$D = 1000 * \frac{1}{0,125} = 8000 \text{ ga teng.}$$

Shundan kelib chiqib, kreditning maksimal qiymatini aniqlab olishimiz mumkin:

$$K = K_0 * \frac{1}{R} \quad (2)$$

K – kreditning maksimal miqdori;

$K_0$  – birlamchi kredit miqdori;

R – bir birlik depozit uchun rezerv. Bunda  $R=0,125$  (12,5%)ga teng.

$$K = 875 * \frac{1}{0,125} = 7000 \text{ ga teng.}$$

Demak, bank tizimida yaratilishi mumkin bo'lgan depozitning maksimal qiymati o'rtacha majburiy zaxira stavkasi 12,5 foizga teng bo'lganida 8 000 birlikni tashkil qilishi mumkin ekan. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan berilishi mumkin bo'lgan kreditlarning maksimal miqdori esa 7 000 birlikka teng bo'lish mumkin.

Lekin bugungi kunda o'rtacha majburiy zaxira stavkasi 9 foizligini inobatga oladigan bo'lsak, depozit multiplikatsiyasini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

#### 1.4-jadval

##### Depozit multiplikatsiyasi<sup>30</sup>

Bank	a bank	b bank	d bank	e bank	f bank	...bank	Jami
<b>Depozit</b>	1000	910	828,1	753,6	685,776	...	<b>11111</b>
<b>Kredit</b>	910	828,1	753,6	685,776	624,05616	...	<b>10111</b>

<sup>30</sup> Муаллиф томонидан тайёрланди.

<b>Majburiy zaxira (9 %)</b>	90	81,9	74,529	67,824	61,71984	...	<b>1000</b>
------------------------------	----	------	--------	--------	----------	-----	-------------

Berilgan ma'lumotlar asosida bank tizimida yaratilishi mumkin bo'lgan depozitning maksimal qiymatini hisoblab chiqsak:

$$D = 1000 * \frac{1}{0,09} = 11111 \text{ ga teng.}$$

Xuddi shu kabi banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan kreditlarning maksimal miqdorini quyidagicha aniqlaymiz:

$$K = 910 * \frac{1}{0,09} = 10111 \text{ ga teng.}$$

Demak, yuqoridagi tahlillar natijasidan ko'rishimiz mumkinki, mamlakat hududida tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasining pasaytirilishi banklar tomonidan jalb qilinishi mumkin bo'lgan depozitlar miqdorini sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda yuqoridagi tahlilimizdan ko'rishimiz mumkinki, majburiy zaxira stavkasining pasaytirilishi Markaziy bank majburiy zaxiralar miqdorining pasayishiga olib kelmagan. Yuqoridagi holatlarni o'rganish va tahlil qilish orqali, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi asosan majburiy zaxira foiz stavkalariga bevosita bog'liqdir.

Amerikalik olimlar, ya'ni Rodjer Miller va Devid Van-Xuzlarning ilmiy ishlarida depozit multiplikatorini aniqlashda asosiy e'tibor transaksion depozitlarga qaratilgan. Ularning fikricha, transaksion depozitlar – pullar yaratilishining yagona shakli bo'lib, depozit multiplikatorini pul multiplikatori sifatida ham atash mumkinligini qayd etib o'tadilar<sup>31</sup>.

Barcha iqtisodchilarga ma'lumki, tijorat banklari jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalari darajasini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi hamda inflyatsiya darajasining so'nggi yillardagi o'zgarishidan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

<sup>31</sup> Роджер Миллер, Дэвид Ван-Хуз. Современные деньги и банковское дело: Пер. с англ.-М.: ИНФРА-М.-2000-XXIV.-С.856.

O'z navbatida, Markaziy bank, bank omonatchilari, qarz oluvchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish, depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarining asossiz o'sishini oldini olish va u bilan bog'liq risklarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida muntazam ravishda banklarning depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalari darajasini monitoring qilib boradi.

Markaziy bank muayyan bir bankning jalb qilingan depozitlari (omonatlari) bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasining asossiz ravishda yuqoriligini, mazkur bankning:

- aktivlari va kapitali rentabelligi darajasi;
- foizli daromadlarning yalpi daromaddagi ulushi va aktivlarga nisbati;
- foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbati;
- foizli xarajatlarning umumiy majburiyatlarga nisbati;
- jalb qilinayotgan mablag'larning aylanish muddatlari va bank aktivlarining rentabelligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi;

- omonatga jalb qilinayotgan mablag'lardan foydalanishning samaradorligi darajasi kabi ko'rsatkichlarga ta'sirini hamda bank tizimi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan pastligi yoki yuqoriligini tanqidiy ko'rib chiqadi va tahlil qiladi<sup>32</sup>.

Mazkur ko'rsatkichlarning belgilangan me'yor darajasida bo'lishi bankning depozitlar bo'yicha to'lanayotgan foizlarga, banklar tomonidan jalb qilinayotgan depozitlarning jozibadorligiga, bankning moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z mablag'larini banklardagi depozit(omonat)larga qo'yar ekan, avvalambor, ushbu mablag'larni bus-butun saqlanishi va o'z vaqtida qaytarilishidan manfaatdordir. Hozirgi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining banklardagi omonatlarini himoyalash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning banklardagi depozitlarini sug'urtalashga qaratilgan

---

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi nizom. 2015 yil 13 iyun

masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda aholi omonatlarini kafolatlashning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Mamlakatimizda aholi omonatlarini kafolatlash tizimining huquqiy asosi 2002 yildan boshlab shakllana boshladi. Jumladan, 2002 yil 5 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish maqsadida «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi» tashkil etildi.

Fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lash maqsadida bankning tugatish komissiyasi litsenziya chaqirib olingan kundan e'tiboran ikki oy mobaynida kreditorlarni aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralari fondiga depozitga qo'yilgan debitorlik qarzlari va mablag'larini olish choralarini ko'radi. Mazkur mablag'lar birinchi navbatda, tugatilayotgan bankning fuqarolar omonatlari bo'yicha qarzlarni to'lashga yo'naltiriladi.

Ushbu muddat tugaganidan so'ng, bankning tugatish komissiyasi o'n kunlik muddat ichida Fondga quyidagilarni taqdim etishi shart:

- tasdiqlangan oraliq tugatish balansi;
- tugatilayotgan bank mol-mulkining tarkibi to'g'risidagi ma'lumot;
- kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar ro'yxati;
- fuqarolar omonatlarining miqdorlarini tasdiqlovchi ma'lumot;
- fuqarolarning omonatlari bo'yicha haq to'lash uchun Fondga zarur bo'ladigan pul mablag'larining hisobi<sup>33</sup>.

Fond oraliq tugatish balansini olgan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lash tartibi va muddatlari to'g'risidagi xabarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Tijorat banklari, o'z navbatida, fondga quyidagi badal to'lovlarini amalga

---

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 11-modda.

osHIRadi. Bir yo'la to'lanadigan va kalendar badallar banklarning Fondga to'laydigan majburiy badallaridir.

Bankning Fondga bir yo'la to'laydigan badali bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 0,1 foizini tashkil etadi.

Qonunga muvofiq kafolatlanishi lozim bo'lgan fuqarolar omonatlarining yil choragidagi amaldagi qoldig'iga qarab Fond kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan, ammo omonatlar umumiy summasining 0,5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Kalendar badallarining to'langan summasi fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'i umumiy summasining 5 foiziga etganda banklar tomonidan kalendar badallarni to'lash to'xtatiladi.

Banklar tomonidan Fondga to'lanadigan majburiy badallar banklarning ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlariga qo'shib qo'yiladi<sup>34</sup>.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'ining umumiy summasi o'zgarganda Fondga to'langan kalendar badallarining summasi qayta hisoblab chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklar uchun fuqarolarning pul mablag'larini omonatlarga jalb etishga taqiq joriy etilishi banklarni Fondga kalendar badallarini to'lashdan ozod etmaydi. Kalendar badalning stavkasi o'zgartirilgan taqdirda Fond banklarni bundan kamida o'ttiz kun oldin xabardor qilishi shart.

Fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha kalendar badal chet el valyutasida hisob-kitob qilinganda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan, kalendar badal o'tkazilgan kundan oldingi kungi kurs bo'yicha qayta hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini to'g'risida»gi qonuni. 8-modda.

to'g'risida»gi PF-4057-sonli Farmoniga muvofiq omonatlarning miqdoridan qat'i nazar, fuqarolarning tijorat banklari depozit hisobvaraqlaridagi omonatlari bo'yicha to'la hajmda haq to'lanishini kafolatlash tartibi o'rnatildi. Shu vaqtgacha esa, amaldagi qonun bo'yicha bir omonatchiga kafolatli haq to'lab berish hajmi respublikamizdagi eng kam oylik ish haqining 250 barobari miqdorida chegaralangan edi va yuqoridagi Farmon asosida ushbu chegara olib tashlandi.

Mazkur Farmonning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimiz tijorat banklariga nisbatan aholining ishonchini yana bir pog'onaga oshishiga sabab bo'ldi. Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2009 yil 1 yanvar holatiga aholining banklardagi omonatlari qoldig'i 1,7 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning 1 yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 14,7 trln. so'mdan oshdi<sup>35</sup>.

Hozirgi kunda banklarning depozit bazasi barqarorligi va etarliligini tavsiflovchi turli xil yondoshuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning ichida eng ko'p qo'llanilayotgan usullar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

Birinchi metodika Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori me'yoriy darajasi 30 foizni tashkil etishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi metodika AQShning Federal zaxira tizimi, Depozitlarni sug'urtalash bo'yicha federal korporatsiya va Pul muomalasining Bosh nazoratchisi tomonidan ishlab chiqilgan «CAMELS» reyting tizimida o'z aksini topgan. Ushbu ko'rsatkichning eng past, ya'ni minimal me'yoriy darajasi 75 foiz qilib belgilangan.

---

<sup>35</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.

**Tijorat banklari depozit bazasi barqarorligi va etarliligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va me'yorlar<sup>36</sup>**

<b>t/r</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Aniqlash usuli</b>	<b>Me'yoriy ko'rsatkich</b>
1	Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki metodikasi	TD/ TD+JD+MD*100	mazkur ko'rsatkichning eng yuqori chegarasi 30 foizni tashkil etishi lozim
2	«CAMELS» reyting tizimi asosida baholash metodikasi	Barqaror depozitlar/jami depozitlar*100	mazkur ko'rsatkichning amaldagi darajasi 75 foizdan past bo'lmasligi lozim

O'z navbatida, barqaror depozitlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i;
- muddatli depozitlar
- jamg'arma depozitlar

Shuningdek, MDH mamlakatlari xususan, Rossiya Federatsiyasida tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligini tavsiflovchi bir qator boshqa ko'rsatkichlardan ham foydalanib kelinmoqda. Masalan:

- muddatli depozitlarning jami depozitlar tarkibidagi ulushi. Mazkur talabga ko'ra tijorat banklari depozitlari tarkibida muddatli depozitlarning ulushi 50 foizdan kam bo'lmasligi tavsiya etilgan;

- talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlar tarkibidagi ulushi. Unga ko'ra talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan oshib ketmasligi belgilangan<sup>37</sup>.

Bunday me'yorlarning o'rnatilishi har bir mamlakatning bank tizimidagi mavjud xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz bank amaliyotida depozitlarning mustahkamligini tavsiflovchi aniq metodika ishlab chiqilmagan. Shu sababli, mamlakatimiz bank tizimida xalqaro me'yorlarda belgilangan ko'rsatkichlardan foydalanib kelinmoqda.

<sup>36</sup> Muallif tomonidan shakllantirildi.


<sup>37</sup> А.В.Грибанов. Совершенствование депозитной политики коммерческого банка в контексте его устойчивого развития. Дис... канд. эк. наук. – Саранск: 2019. – 262 с.





### 1.3. Tijorat banklari depozit operatsiyalarining xorij tajribasi va undan respublikamiz bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi. Jamg'armalarni jalb qilish shakllarini quyidagicha ifodalash mumkin.



#### 1.1-rasm. Tijorat banklari tomonidan banklar depozit bazasini shakllantirish usullari<sup>38</sup>

Tijorat banklariga jalb qilingan mablag'lar va ularning harakati mahsus hisob raqamlarida aks ettiriladi. Jumladan, yuridik shaxslar mablag'lari uchun hisob-kitob raqami ochiladi, boshqa banklardan jalb qilingan mablag'larning hisobi korrespondent hisob raqamda yuritiladi, aholidan jalb qilingan mablag'larga bank alohida hisob raqam ochiladi. Depozit va jamg'arma sertifikatlari hamda bank veksellari boshqa hisob raqamlarda yuritiladi.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari ularning faoliyatining muhim qismi bo'lib, barqaror moliyalashtirish va likvidlik manbalarini ta'minlaydi. Turli

<sup>38</sup> Muallif tomonidan shakllantirildi.

mamlakatlarda ushbu sohada turli xil yondashuvlar va amaliyotlar mavjud. Xorijiy depozit operatsiyalari tajribasining bir nechta misollarini ko'rib chiqamiz.

AQShda tijorat banklarining depozit operatsiyalari Federal rezerv (Fed) va federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi (FDIC) tomonidan tartibga solinadi.

Depozitlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

Talab qilib olinadigan hisobvaraqlar (talab depozitlari): bu istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmasdan olib qo'yilishi mumkin bo'lgan depozitlar.

Jamg'arma hisobvaraqlari: ushbu hisobvaraqlar mijozlarga omonatlari bo'yicha foizlar olish imkoniyatini beradi, shu bilan birga mablag'lar mavjud bo'lib qoladi.

Muddatli depozitlar (vaqt depozitlari, CD): ushbu depozitlar belgilangan muddat va foiz stavkasiga ega. Muddat tugashidan oldin pul olish jarimaga olib kelishi mumkin.

Buyuk Britaniyada depozit operatsiyalari moliyaviy tartibga solish va nazorat idorasi (FCA) tomonidan tartibga solinadi. Depozitlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

Joriy hisobvaraqlar: Amerika talab qilib olinadigan hisobvaraqlarning analogi, mijozlarga istalgan vaqtda o'z mablag'laridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Jamg'arma hisobvaraqlari: ushbu hisobvaraqlar mablag ' to'plash va foiz stavkalarini taklif qilish uchun mo'ljallangan.

Ruxsat etilgan jamg'arma hisobvaraqlari (Fixed Savings Accounts): bu ma'lum bir davr uchun belgilangan foizli muddatli depozitlar.

Germaniyada tijorat banklarining depozit operatsiyalari Federal moliyaviy nazorat idorasi (bafin) tomonidan tartibga solinadi. Depozit turlariga quyidagilar kiradi:

Gyro hisoblari (Girokonto): kundalik operatsiyalar uchun mo'ljallangan hisoblarni tekshirish analoglari.

Jamg'arma hisobvaraqlari (Sparkonto): mablag'larni to'plash va foizlarni hisoblash uchun ishlatiladi.

Muddatli depozitlar (Festgeldkonto): ushbu hisobvaraqlarda belgilangan muddat va foiz stavkasi mavjud.

Yaponiyada depozit operatsiyalari moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA) tomonidan tartibga solinadi. Depozitlarning asosiy turlari:

Oddiy depozitlar (Futsu Yokin): joriy hisobvaraqlarning analogi, istalgan vaqtda mablag'larga kirishni ta'minlaydi.

Muddatli depozitlar (Teiki Yokin): belgilangan muddat va foiz stavkasi bilan belgilangan depozitlar.

Jamg'arma depozitlari (Chochiku Yokin): ushbu hisobvaraqlar mablag'larni to'plash va foizlarni hisoblash uchun mo'ljallangan.

#### Xususiyatlari va yangiliklari

Raqamli banklar: so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda mobil ilovalar va past to'lovlar kabi mijozlar uchun yaxshilangan sharoitlar va qulayliklarni taklif qiluvchi raqamli banklarning o'sishi kuzatilmoqda.

Depozitlarni sug'urtalash: ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank ishlamay qolganda mijozlarni himoya qiladigan depozitlarni sug'urtalash tizimi mavjud.

Yuqori daromadli mahsulotlar: ba'zi banklar kapitalni oshirish maqsadida mijozlarni jalb qiladigan maxsus yuqori daromadli depozit mahsulotlarini taklif qilishadi.

Shunday qilib, tijorat banklarining depozit operatsiyalarining xorijiy tajribasi ushbu sohadagi turli xil yondashuvlar va innovatsiyalarni ko'rsatadi, bu esa moliyaviy tizimlarning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklari aktivlar portfellarini sifatini oshirish borasida katta tajriba to'plangan. Xususan, banklarning kredit portfeli sifatini ta'minlash yo'li bilan daromadlarning barqarorligini ta'minlash va likvidlikning me'yoriy darajalariga erishish imkoniyati yuzaga kelgan. Shuningdek, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli banklar aktivlarining daromadlilikini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida juda yuqori salmoqni egallaydi.

Biz quyida Buyuk Britaniyaning eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Barclays bank aktivlarining tarkibini ko'rib chiqamiz.

### 1.6-jadval

#### Barklays bank (Buyuk Britaniya) aktivlarining tarkibi<sup>39</sup>, foizda

Aktivlar tarkibi	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Naqd pullar va Markaziy bankdagi pul mablag'lari	2,9	4,4	8,4	15,1	15,6
Boshqa banklardagi pul mablag'lari	0,1	0,1	7,4	6,8	6,8
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	51,1	53,4	47,8	47,3	42,1
Berilgan kreditlar	34,6	39,3	28,4	28,6	28,8
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	0,8	1,1	0,9	0,9	0,9
Boshqa aktivlar	10,9	1,7	7,1	1,3	5,8
Aktivlar -jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1.6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Barclays bank aktivlarining umumiy hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaydi. Ushbu ikki aktivning jami aktivlar hajmidagi salmog'i, 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 70,9 foizni tashkil etdi.

1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-2020 yillarda Barclays bank aktivlarining umumiy hajmida naqd pullar va Markaziy bankdagi pul mablag'lari kichik salmoqni egallagan. Bu esa, naqd pullarni va bankning Angliya Markaziy bankidagi «Nostro» vakillik hisobraqamidagi pul mablag'larini daromad keltirmaydigan aktivlar ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur aktivlarning Barclays bank aktivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining 2021-2023 yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganligi bankning Markaziy bankka qo'ygan depozitlari

<sup>39</sup> Jadval Barclays PLS. Annual Reports ([www.barclays.com](http://www.barclays.com)) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.


1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Barclays bank aktivlarining umumiy hajmida boshqa banklardagi mablag'lar salmog'i 2021-2023 yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, Barclays bank tomonidan mazkur davrda xorijiy banklarga joylashtirilgan depozitlar miqdorining oshib borganligi bilan izohlanadi. Ammo, 2019 va 2020 yillarda mazkur aktivlarning Barclays bank aktivlarining umumiy hajmidagi salmog'i juda past bo'lgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-2023 yillarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning Barclays bank aktivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Ushbu tendentsiyaning yuzaga kelishi mazkur davrda Markaziy bankdagi pul mablag'lari va kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining o'sib borganligi bilan izohlanadi.

1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2019-2023 yillarda Barclays bank aktivlarining umumiy hajmida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar salmog'i juda kichik bo'lgan. Bu esa, mazkur aktivlarni daromad keltirmaydigan aktivlar ekanligi bilan izohlanadi.

Shunisi xarakterliki, kreditlash va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish amaliyoti Barclays bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, Barclays bank daromadlarining asosiy qismini kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan foizli daromadlar tashkil etadi. Bu esa, kreditlar berish va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishning Barclays bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari ekanligi bilan izohlanadi.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan foizli daromadlarning Barclays bankning yalpi daromadi hajmidagi salmog'iga baho beramiz (1.2-rasm).



**1.2-rasm. Barclays bankning yalpi daromadi hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarning salmog'i<sup>40</sup>, foizda**

1.2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-2023 yillarda Barclays bankning yalpi daromadi hajmida kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Ayniqsa, 2023 yilda mazkur ko'rsatkichning darajasi yuqori bo'lgan. Bu esa, kreditlar va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olingan foizli daromadlarni Barclays bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

Shuni qayd etish joizki, muddatli va jamg'arma depozitlarning tijorat banklari uchun ahamiyatli jihati shundaki, ushbu turdagi depozitlar banklar uchun aktiv operatsiyalarni amalga oshirishning barqaror manbasi hisoblanib, mablag' egalari shartnoma muddati tuguguncha ushbu mablag'larni banklardan qaytarib olishlari mumkin emas. Jumladan, depozit mablag'larining egalari o'z mablag'larini shartnoma muddati tugashidan oldin qaytarib oladigan bo'lsa, bank tomonidan ularga to'lanadigan foizlar miqdori keskin kamaytiriladi. Natijada, depozit egalari shartnomada ko'rsatilgan foiz bo'yicha to'lanadigan daromaddan mahrum bo'lishadi. O'z navbatida, depozit egalari depozitlar bo'yicha daromad darajasining keskin kamayishini hisobga olib, ushbu depozitlarni oldindan qaytarib

<sup>40</sup> Rasm. Barclays PLS. Annual Reports ([www.barclays.com](http://www.barclays.com)) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

olishni keskin kamaytirishadi.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, taraqqiy etgan davlatlarda tijorat banklari tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlar uchun to'lanadigan foiz stavkalarini darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina tijorat banklari mazkur depozitlarning foiz stavkalarini belgilashda hukumat qimmatli qog'ozlariga to'lanayotgan foiz stavkalarining o'rtacha darajasini inobatga olishadi.

Hozirgi kunda jahonda bank tizimi va qimmatli qog'ozlar bozori eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan AQSh tijorat banklarining majburiyatlari tarkibini ko'rib chiqamiz.

**1.7-jadval**  
**AQSh tijorat banklari majburiyatlari tarkibi va dinamikasi<sup>41</sup>**  
*(yil oxiriga, foizda)*

<i>Majburiyatlar</i>	<i>Yillar</i>				
	<i>2019 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2023 y.</i>
Depozitlar	76	78,3	79,7	82,4	82,3
Shu jumladan:					
Uzoq muddatli depozitlar	13,4	13,6	10,9	10,8	13,1
Boshqa depozitlar	62,6	64,7	68,8	71,6	69,2
Qarz mablag'lari	14,5	13,9	14,1	12,1	12,2
Xorijiy ofislar oldidagi majburiyatlar	5,2	3,3	1,9	1,7	2,1
Boshqa majburiyatlar, savdo majburiyatlari	4,3	4,5	4,3	3,8	3,4
<b>Jami majburiyatlar</b>	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bugungi kunda AQSh bank amaliyotida tijorat banklarining majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi ancha yuqori. Masalan, 2019 yilda bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning ulushi 76,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 82,3 foizgacha oshgan. AQSh bank amaliyotida banklarning aktiv operatsiyalarining katta qismi depozitlar hisobidan qoplanishini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatda bank depozitlarining mustahkamliligiga alohida e'tibor qaratiladi.

<sup>41</sup> Jadval [www.federalreserve.gov](http://www.federalreserve.gov) - AQSh Federal rezerv tizimi rasmiy sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Hozirgi kunda AQShda depozitlarning asosan ikkita turi alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular jamg'arma hisobraqamlar va chekli hisobraqamlardir. Chekli hisobraqamlardagi mablag'lardan tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Jamg'arma depozitlaridan esa bunday maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

### 1.8-jadval

#### AQSh tijorat banklari depozitlari tarkibi va dinamikasi<sup>42</sup>

(yil oxiriga, foizda)

<i>Depozitlar</i>	<i>Yillar</i>				
	<i>2019 y</i>	<i>2020 y</i>	<i>2021y</i>	<i>2022 y</i>	<i>2023 y</i>
Muddatli depozitlar	15,6	14,5	13,4	13,5	14,1
Jamg'arma depozitlar	69,4	70,7	71,8	71,4	71,3
Talab qilib olinguncha depozitlar	15	14,8	14,8	15,1	14,6
<b>Jami depozitlar</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

1.8-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda AQSh mahalliy banklari tomonidan jalb qilingin depozitlarning asosiy qismini jamg'arma depozitlar tashkil qilmoqda va ularning ushbu salmog'i so'nggi yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Jamg'arma depozitlar tabiatiga ko'ra muddatli depozitlardan arzon resursligi va u bo'yicha tuziladigan bitimlarning egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bois AQSh tijorat banklari aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ko'proq mazkur depozitlardan foydalanilishi bejiz emas. Chunki, AQShda tijorat banklari talab qilib olinguncha depozitlardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda resurs manba sifatida foydalanmaydi va ushbu depozitlar uchun foiz to'lanmaydi. Bu, o'z navbatida, AQSh banklariga barqaror depozitlar uchun yuqori darajada foiz to'lash imkonini beradi.

Xulosa qilib quyidagilar shakllantirildi:

Depozit operatsiyalarining bizning fikrimizcha mohiyati:

- Depozit operatsiyalari-bu mijoz (jismoniy yoki yuridik shaxs) ma'lum

<sup>42</sup> <http://www.fdic.gov>. jadval AQSh Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) rasmiy sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

sharoitlarda bankda mavjud mablag'larni joylashtiradigan moliyaviy operatsiyalar.

- Bank, o'z navbatida, mijozning mablag'larini saqlab qolish, ularga pul mablag'larini olish va ulardan foydalanish imkoniyatini berish, shuningdek hisob balansi bo'yicha foizlarni olish majburiyatini oladi.

Depozit operatsiyalarining nazariy asoslari:

- Ishonch va kreditga layoqatlilik: depozit operatsiyalarining asosiy printsiplari mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi va depozit qilingan mablag'larning saqlanishini ta'minlash uchun bankning kreditga layoqatliligi hisoblanadi.

- Likvidlik va xatarlar: bank defolt xavfini hisobga olgan holda qaytarib olish talablarini qondirish uchun likvidlikni ta'minlashi kerak.

- Foiz stavkalari va rentabellik: depozit operatsiyasining asosini bank tomonidan belgilanadigan va mijozga depozit qilingan mablag'lardan daromad olish imkonini beradigan foiz stavkalari tashkil yetadi.

- Zaxira talablari va qoidalari: banklar, shuningdek, moliyaviy barqarorlik va operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash uchun mijozlar mablag'larini joylashtirish bo'yicha zaxira talablari va qoidalariga rioya qilishadi.

Depozit operatsiyalari turlari:

- Depozit operatsiyalari turlari orasida shoshilinch va talab bo'yicha jamg'arma hisobvaraqlari, doimiy daromadli depozitlar va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

- Shuningdek, maxsus depozitlar mavjud, masalan, to'ldirish imkoniyati bo'lgan yoki bo'lmagan holda turli davrlarga muddatli depozitlar.

Shunday qilib, depozit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatining asosiy yeleменти bo'lib, bank va uning mijozlari o'rtasidagi muhim mexanizmni ifodalaydi, mijozlar uchun mablag'larni tejash va ko'paytirish imkoniyatini beradi, shuningdek, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va kreditlash uchun bank uchun resurslarni jalb qilish manbai hisoblanadi.

## I bob bo'yicha xulosa

Biz, tijorat banklari depozitlari samaradorligining nazariy asoslarini atroflicha o'rganish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. Fikrimizcha, tijorat banklari depozit operatsiyalari – bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan muayyan maqsadlarda bankka pul mablag'larini jalb qilish va ularni saqlash bilan bog'liq operatsiyalardir;

2. Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlarga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasining pasaytirilishi banklar tomonidan jalb qilinishi mumkin bo'lgan depozitlar miqdorini oshishiga xizmat qiladi;

3. Tijorat banklari depozit bazasini kengaytirish yo'llari sifatida taklif etilayotgan yo'nalishlardan tijorat banklarining foydalanilishi va har doim e'tibor qaratib borishi, kelgusida banklarning depozit bazasini oshirishga xizmat qiladi;

4. Tijorat banklari depozit bazasini kengaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizmdan oqilona foydalanish, banklar uchun depozitlar jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tijorat banklari tomonidan mavjud mijozlar bilan ishlash bilan bir qatorda, yangi mijozlar jalb etish ham muhimdir;

5. Bank passivlarini boshqarish nazariyalarining o'rganilishi va undan amaliyotda oqilona foydalanilishi tijorat banklari likvidlilik muammosining oldini olishga va bankning mijozlari oldidigi majburiyatlarini to'laqonli bajarishiga olib keladi.

6. Tijorat banklarining depozitlari bank faoliyatining moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondiruvchi eng asosiy vositalardan biri bo'lib, xalqaro amaliyotda depozitlarning bir-nechta turlaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan;

Muddatiga ko'ra, valyutasiga ko'ra, foiz to'lashiga ko'ra, barqarorlik darajasiga ko'ra va hokazo.

Depozitlarning bunday tasniflanishi, banklar tomonidan ushbu depozitlarni boshqarish va samarali foydalanish darajasini oshiradi.

7. Taraqqiy etgan davlatlar bank tizimi depozit bazasi mustahkamligini ta'minlash bo'yicha amaliyotini o'rganganimizda bir qator ijobiy jihatlarni

mamlakatimiz bank tizimida qo'llash yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirdik:

– tijorat banklari majburiyatlari tarkibida depozitlarning salmog'ini oshirish va ularning musthkamligini ta'minlashga erishishimiz lozim. Ya'ni, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, AQSh va Yaponiya banklarida muddatli va jamg'arma depozitlar asosiy depozit sifatida talqin qilinadi. Mazkur mamlakatlar bank amaliyotida tijorat banklari asosiy depozitlarining ulushi 80-90 foizni tashkil etmoqda;

– bank depozitlari tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning banklarning depozit bazasi hajmidagi udlushini ortishiga yo'l qo'ymaslik maqsadga muvofiqdir. Xalqaro bank amaliyotida jumladan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra ushbu depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'i 30 foizdan oshmasligi kerak;

– tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamligi banklarning aktiv operatsiyalari, shu jumladan moliya bozoriga ishitirok etish va kredit operatsiyalari hajmining oshishiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Mamlakat tijorat banklari kreditlari va depozitlari hajmi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga erishish lozim. Bu, o'z navbatida, tijorat banklarining likvidligiga va daromadliligiga ta'sir ko'rsatadi. Evrohudud tarkibiga kiruvchi davlatlar Germaniya, Frantsiya, Lyuksemburg kabi mamlakatlarning bank tizimi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davlatlarda tijorat banklari depozitlarining bank kreditlariga nisbati 90 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda.